

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR

Ishpulatova Dinora

Qarshi Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784416>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari va ularda fanlarni oson o'zlashtirishiuchun turli interfaol metodlardan foydalanish usullarini tahlil qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish bu bolalarning o'quv faoliyatida juda muhimdir. Maqolada muammoli vaziyatlar, vizual va badiiy faoliyatlar va zamonaliviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan interfaol metodlar ko'rib chiqiladi. O'qituvchining rahbarlik roli va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda uning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lism, interfaol metod, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyat, ta'lim jarayoni, texnologiyalardan foydalanish.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются навыки творческого и логического мышления учащихся начальной школы и методы использования различных интерактивных методов для облегчения усвоения ими предметов. Использование интерактивных методов очень важно в образовательной деятельности этих детей. В статье обсуждается Будут рассмотрены проблемные ситуации, интерактивные методы, направленные на развитие творческих способностей учащихся посредством изобразительной и художественной деятельности и использования современных технологий. Анализируется руководящая роль учителя и ее значение в развитии творческих подходов.

Ключевые слова: Начальное образование, интерактивный метод, творческое мышление, проблемная ситуация, образовательный процесс, использование технологий.

INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY EDUCATION LESSONS

Abstract. This article analyzes the creative and logical thinking skills of students in primary education and the methods of using various interactive methods to facilitate their mastery of subjects. The use of interactive methods is very important in the educational activities of these children. The article examines interactive methods aimed at improving the creative skills of students through problem situations, visual and artistic activities, and the use of modern technologies. The role of the teacher in the leadership and his importance in developing creative approaches is analyzed.

Keywords: Primary education, interactive method, creative thinking, problem situation, educational process, use of technologies.

Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilim olishi birinchi o'rinda turishini hamma yaxshi biladi.

O'quvchi o'qituvchi bergan har bir bilimini yaxshi o'zlashtirishi uchun turli xil metodlarni qo'llash lozim. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning interfaol metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Faqatgina o'qituvchi emas, balki o'qituvchi bilan birlgilikda o'quvchi ham faol bo'lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko'rnishdagi metodlar o'yinlar orqali ularga tushuntirib ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilamiz. Dars jarayonida bolalarni zeriktirib qo'ymaslik uchun ularga turli xildagi metodlar asosida dars jarayonni tashkil qilamiz.

Boshlang'ich ta'lim-bu o'quvchilarning maktab davridagi bilim olish bosqichlaridan biri sanaladi. Bu davrda o'quvchilarning ijodiy, mantiqiy fikrlashlarini o'stirish, ularni hartomonlama rivojlantirishda o'qituvchining roli katta. O'qituvchi bu jarayonda kreativ bo'lishi va ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishi ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi. Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim jarayonida o'qituvchi roli haqida aytgan fikrlarini keltirsak" Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoҳ domlesi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lislari kerak". Muhtaram prezidentimizning bu fikrlari ham yuqorida aytilgan fikrlarga yorqin isbotidir.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi va ta'lim sifati yaxshilanadi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmunni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi.

Albatta, har bir ishning maqsadi bo‘lgani kabi interfaol usullarni qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. U o‘zining intelektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etibgina qolmay, balki o‘quv sifatini va samaradorligini oshiradi, ta’minlaydi.

Interfaol metodlarga to’xtaladigan bo’lsak, aslida bu yerda birinchi navbatda "metod" so’zi ma’nosini bilishimiz kerak. "Metod" so’zi grekcha so‘z bo‘lib "yo‘l,usul" degan ma‘nolarni anglatadi. Ta‘lim jarayonida metodlardan foydalanish shu fan bo‘yicha o‘quvchilarning qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Bunda o‘qituvchi o‘zining kreativligi orqali orqali darsda yangi metodlar o‘ylab topishi mumkin. Endi "interfaol" "tushunchasiga" to’xtaladigan bo’lsak, "interact" (rus tilida "interaktiv") deb ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazaridan "inter" -o‘zaro ,ikki tomonlama "act" harakat qilmoq ,ish ko‘rmoq kabi ma‘nolarni anglatadi. Interfaol metodlar deganda ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi ,ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushunildi. Interfaol metodlarga "Keys-stadi", "Blits-so‘rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish","Muammoli ta‘lim" va h.k kiradi. Bu metodlar ta‘lim jarayonida o’sha metod uchun ta‘lim muhiti yaratilgan holatda qo’llaniladi. Ta‘lim jarayonida bu metodlarni to‘g‘ri tanlash va undan samarali foydalanish kerak. Ta‘lim jarayonida interfaol metodlarni tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinadi.

- Fanning va o’rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o‘ziga xosliklari
- O‘quv mashg‘ulotining maqsadi,vazifalari va mazmuni
- O‘quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari
- O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi
- Materialni o’rganishga ajratilgan vaqt

Interfaol metodlar tahlili "Modellashtirish" "metodi" bu metod darslarda o‘quvchilarga murakkab fikrlarni soddalashtirib, tizimli tarzda o‘rganish imkonini beradigan samarali ta‘lim metodidir. Bu metod o‘quvchilarning analistik va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek ular o’rgangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash imkoniyatini beradi. Bu metodning maqsadi-o‘quvchilarga murakkab vazifalarni oson tushunishga yordam beradi.

Keys-stadi (Vaziyat tahlili)metodi

O‘quvchilarga turli vaziyatlarda qanday qaror qabul qilishga o’rgatadi. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni o’rgatadi. Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Interfaol metodlardan foydalanib darsni tashkil etish o‘quvchilarga nafaqat bilimlarni qabul qilish, balki ular bilan fikr almashish, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi va darslarni qiziqarli, mazmunli qiladi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. O'quvchilar uchun bu metodlarni qo'llash orqali darslarni yanada faol va samarali tashkil etish ,o'quvchilarning individual va guruh ishlaridagi muvaffaqiyatini oshirish imkonini beradi.

Matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tadi. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari juda o'yinqaroq bo'lishadi.

Shuning uchun ham darslarni rang-barang metodlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Misol uchun "Ko'paytirish jadvali"ni tushunishda o'quvchi qiyonaladi. Agar bu mavzu interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o'quvchining xotirasida qolishi osonroq bo'ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o'qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonalarini tashkil qilamiz. Oddiygina o'qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko'pchiligidagi o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlarini usullari, bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarga erishiladi, o'quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlarini rivojlanadi. Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir. Bu usullar maktab pedagogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanim kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi.

REFERENCES

1. Sidiqova, D. S. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1027-1031.
2. Shavkatovna, S. D. (2022). MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG 'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. PEDAGOOGS jurnali, 1(1), 61-62
3. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.
4. Sidiqova, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 4(4).
5. Sidiqova, D. S. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMI. Scientific progress, 2(7), 1027-1031.
6. Shavkatovna, S. D. (2022). MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG 'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. PEDAGOOGS jurnali, 1(1), 61-62.

7. Shavkatovna, S. D. (2022). Issues of Formation of Professional Competence of Students. European journal of innovation in nonformal education, 2(2), 291-294.
8. Sidiqova, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lif va loyihalash texnologiyasi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 4(4).
9. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152- 155.